



## RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INNOVATSION JARAYONLARNI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Raximova Lobar Kamoliddin qizi**

Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti

ORCID: 0009-0005-2016-8219

[rahimovalobar2004@gmail.com](mailto:rahimovalobar2004@gmail.com)

**Ozodova Feruzabonu Jumanazar qizi**

Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti

ORCID: 0009-0005-3550-2638

[feruzabonuozodova@gmail.com](mailto:feruzabonuozodova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Innovatsiyalar uzoq muddatda raqobatbardosh bo'lish va biznesni qo'llab-quvvatlash uchun asosiy omil bo'la oladi. Innovatsiyalarni boshqarish siyosati rivojlangan, rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlarda o'ziga xos tarzda amalga oshirilishi mumkin. Turli geografik hududlarda, ayniqsa farmatsevtika sanoatining innovatsion sektorlarida hali qiyosiy tadqiqotlar o'tkazilmagan. Maqolaning asosiy maqsadi Shvetsariya va O'zbekiston davlatlari o'rtasida innovatsiyalarni boshqarish jarayonini qanday amalga oshirilayotganini aniqlashdir. Mazkur ilmiy maqolada muallif tomonidan shakllantirilgan statistik ko'rsatkichlarning tahlili o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, tadqiqot va izlanishlar, rivojlanayotgan hamda rivojlangan davlatlar, raqobat, innovatsiyalarni boshqarish, samaradorlik, fan va texnologiya.

## УНИКАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В РАЗВИТЫХ СТРАНАХ

**Рахимова Лобар Камолитдиновна**

Университет Цифровой Экономики и Агротехнологий

**Озодова Ферузабану Джуманазаровна**

Университет Цифровой Экономики и Агротехнологий

**Аннотация.** Инновации могут быть ключевым фактором, чтобы быть конкурентоспособными и поддерживать бизнес в долгосрочной перспективе. Политика управления инновациями может быть реализована уникальным образом в развитых, развивающихся и наименее развитых странах. Пока не было проведено сравнительных исследований в различных географических областях, особенно в инновационных секторах фармацевтической промышленности. Основной целью статьи является определение того, как осуществляется процесс управления инновациями между Швейцарией и Узбекистаном. Данная научная статья отражает анализ статистических показателей, сформулированных автором.

**Ключевые слова:** инновации, исследования и разработки, развивающиеся и развитые страны, конкуренция, управление инновациями, эффективность, наука и техника.

## UNIQUE FEATURES OF INNOVATIVE PROCESSES MANAGEMENT IN DEVELOPED COUNTRIES

**Rakhimova Lobar Kamoliddin kizi**

*University of Digital Economics and Agrotechnologies*

**Ozodova Feruzabonu Jumanazar kizi**

*University of Digital Economics and Agrotechnologies*

**Abstract.** *Innovation can be a key factor in being competitive in the long run and supporting business. Innovation management policy can be implemented in a specific way in developed, developing and least developed countries. No comparative studies have yet been conducted in various geographical areas, especially in the innovative sectors of the pharmaceutical industry. The main purpose of the article is to determine how the innovation management process is carried out between Switzerland and Uzbekistan. This scientific article reflects the analysis of statistical indicators formulated by the author.*

**Keywords:** *innovation, research and development, developing and developed countries, competition, innovation management, efficiency, science and technology.*

### **Kirish.**

Bugungi kunda ilmiy, madaniy, ijtimoiy, sanoat va texnologiyaning turli sohalarida foydali innovatsiyalar va ixtirolar sur'ati insoniyat tarixidagi har qanday vaqtga qaraganda tezroq. Shuning uchun, tashkilotlar o'z faoliyatini uzoq muddat davom ettirishi uchun hozirgi zamonda innovatsiyalar va ijodkorlikka ko'proq e'tibor qaratishi kerak. Insoniyat hayotini ijodkorlik va innovatsiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Innovatsiya muhim tushunchadir, chunki insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlari innovatsiyalar va yangi topilmalar bilan bog'liq. Tashkilotlar tanazzulga uchramay rivojlanishda davom etishi uchun ular o'z innovatsion jarayonlarini to'xtovsiz ravishda davom ettirishlari kerak. Agar yangi g'oyalar yaratilmasa, tashkilotlar oxir-oqibat o'z mijozlarini yo'qotadi. So'nggi 30 yil ichida dunyoning ko'p mamlakatlari turli ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni bartaraf etish uchun innovatsiyalarni rivojlantirishga e'tibor qaratib kelmoqda. Innovatsiyalarni boshqarish - bu mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini yaxshilashga yordam beradigan yangi g'oyalar, mahsulotlar yoki xizmatlarni yaratish jarayoni. Rivojlangan mamlakatlar jahon bozorida raqobatbardoshlikni saqlab qolish vositasi sifatida innovatsiyalarni boshqarishga katta sarmoya kiritmoqda. Ammo, innovatsiyalarni boshqarishni rag'batlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarga qaramay, o'tkaziladigan tadqiqotlarning narxi yuqoriligi va turli tarmoqlar o'rtasida hamkorlikning yo'qligi kabi muammolar hali ham mavjud.

Rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyalarni boshqarishning asosiy omillaridan biri globallashuv, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilishdir. Rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi raqobat kuchayib borar ekan, rivojlangan mamlakatlar o'zlarining raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun innovatsiyalar qilish zarurligini anglab yetmoqda. Bu tadqiqot va izlanishlarga investitsiyalarning ko'payishiga, shuningdek, innovatsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan siyosat va dasturlarning yaratilishiga olib kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyalarni boshqarish yangi sanoat va ish o'rinlarini yaratish zarurati bilan bog'liq. Innovatsiyalarni boshqarish texnologiya, sog'liqni saqlash va qayta tiklanadigan energiya kabi sohalarida yangi tarmoqlar va ish o'rinlarini yaratishga yordam beradi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Ko'pchilik mutaxassislarning fikriga ko'ra, innovatsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning asosiy manbai hisoblanadi. Innovatsiyalar mavjud bo'lmaganda, korxonadagi

ishchilarning kasbiy mahorati va ishchi kuchining samaradorligi pasayib ketar edi, natijada esa bular iqtisodiy o'sishga o'z salbiy ta'sirini o'tkazadi.

Ijtimoiy muhitda ijodkorlik va innovatsiyalarni boshqarish sohasi bozorni ishonchli tovarlar va xizmatlar bilan boyitadi. Mutaxassislar va ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning aksariyatida innovatsiyalarni boshqarish - mamlakat sanoatining yangi bozorlarini zabt etish qobiliyatini oshiradi, deb ta'kidlanadi. Natijada, fan va texnologiya sohasiga alohida e'tibor qaratgan korxonalar ichki va xalqaro bozorlarda yuqori darajada foyda ko'radi (Pouran Yasini, 2016).

Innovatsiyalarni boshqarishning maqsadi - bu g'oyalarni aniq amalga oshiradigan va muvaffaqiyatli innovatsiyalarga aylantira oladigan strategiyani yaratishdir (Nishat Jahan Islam va boshqalar, 2022).

Innovatsiyalarni boshqarish ko'plab kompaniyalar, ayniqsa texnologiya va fan kabi raqobatbardosh sohalarda ko'p foydalanadi. Bu kompaniyalarga mahsuldorlik, rentabellik va moslashuvchanlikni oshirish orqali barqaror va raqobatbardosh bo'lib qolishiga yordam beradi. Rivojlanayotgan mamlakatlar innovatsiyalar qilishi uchun eng katta muammo - bu investitsiya kapitalining yetishmasligidir. Xorijiy fondlar esa rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsiyalarni moliyalashtirish uchun yo'l ochmoqda. Kapital va yangicha iste'dodlarning mavjudligi rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsiyalarni joriy qilishning eng yaxshi va eng oson usullaridan biridir. Innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun ko'plab mamlakatlar tadqiqot va izlanishlarga sarmoya kiritgan korxonalar uchun soliq imtiyozlarini, shuningdek, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun grantlar va kreditlarni taklif qilishadi. Ayrim mamlakatlarda startaplar va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida innovatsion markazlar va inkubatorlar ham tashkil etilgan. Ushbu sa'y-harakatlarga qaramay, rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyalarni boshqarishda hali ham muammolar mavjud. Eng katta muammolardan biri bu - tadqiqot o'tkazish narxining yuqoriligi bo'lib, bu kichik biznes va startaplarning yirik kompaniyalar bilan raqobatlashishini anchagina qiyinlashtiradi.

Innovatsiyalar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning markazi ekanligi haqidagi g'oyalar keng e'tirof etilmoqda. Misol uchun, ko'plab past va o'rta daromadli mamlakatlar o'zlarining milliy rivojlanish dasturlariga innovatsion faoliyatni qo'shdilar va ko'p tashkilotlar innovatsion dasturlarni ishlab chiqishni asosiy maqsad qilib qo'ydilar (UNESCO Citation, 2021). Buni rivojlangan mamlakatlarda 1970-yillarning boshlari va 1980-yillarda innovatsion imkoniyatlarning ahamiyati haqidagi g'oyalarning ko'proq e'tirof etilganligidan kuzatish mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsiyalar bo'yicha ilmiy adabiyotlar ancha kam. Bu innovatsiyalar faqatgina yetuk iqtisodiyotlarga xos emasligini, balki rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham muhim masala ekanligini tan olishga asos bo'la oladi (Rasmus Lema va boshqalar, 2021).

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqot jarayonida ilmiy mushohada, absrakt-mantiqiy fikrlash, statistik, iqtisodiy hamda moliyaviy tahlil usullaridan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Innovatsiyalar korxonaga mijozlarning kutilmalarini qondiradigan darajadagi yangi g'oyalarni yaratishga imkon beradi. Boshqa tomondan, innovatsiyalarning yo'qligi korxonalarni sanoatda qattiq raqobatga olib keladi. Yirik korporatsiyalarning aksariyati yangi g'oyalarni yaratadigan tadqiqot va ishlanmalar bo'limlariga ega. Shuning uchun texnologiya va innovatsiyalarni boshqarish mas'uliyatli hisoblanadi, chunki u tashkilotlarning barcha jabhalariga ta'sir qiladi. Ko'rib chiqilgan barcha tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, agar firmalar o'z faoliyatini yurgizayotgan bo'lsa, doimiy raqobatni saqlash uchun texnologiya va innovatsiyalardan foydalanishlari zarur. Texnologiya va innovatsiyalar bo'yicha boshqaruv

qarorlaridan foydalanish firmalarga xarajatlarni kamaytirish va shu bilan birga samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalari bilan bog'liq innovatsiyalar biznesning o'sishiga hissa qo'shadigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tashkilotlar o'zining yangi mahsulotlarini taqdim etish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanmoqdalar. Innovatsiyalar orqali firmalar mijozlar ehtiyojini qondiradigan eng ideal mahsulotlarni ishlab chiqarishga qodir bo'la oladilar (Juan Carlos va boshqalar, 2019).

Global innovatsion indeks (0-100), 2023:

Ketma-ket 13 yil davomida Shvetsariya dunyoning eng innovatsion davlati deb topildi. Uning bu darajaga erishishini belgilaydigan asosiy omillar orasida biznes yuritish siyosati va patent talabnomalari ko'lamining yuqoriligi alohida ajralib turadi. Uning jahon standartidagi tadqiqot institutlari va malakali ishchi kuchi ham innovatsiyalarni rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismi bo'lib kelmoqda. Shvetsariya so'nggi yillarda mamlakatda aholi jon boshiga hisoblanadigan tadqiqotchilar soni bo'yicha eng yuqori natijaga erishdi (Visual Capitalist veb sayti, 2023).


2023-yil uchun 132 ta davlat bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Shvetsariyada: 67,6 ball (1-o'rin), eng past ko'rsatkich esa Angolada: 10,3 ball (132-o'rin) bo'lgan (Soumitra Dutta va boshqalar, 2023).

### 1-jadval

#### 132 ta davlat miqyosida Global Innovatsion Indeksni belgilab beruvchi asosiy ko'rsatkichlar (2023-yil holatiga ko'ra)

№	Soha nomi	Davlatlararo egallagan o'rni	
		O'zbekiston	Shvetsariya
1	Global Innovatsion Indeks	82	1
2	Yaratilgan biznes muhit	19	3
3	Ta'lim	78	25
4	Tadqiqot va ishlanmalar	92	4
5	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	63	25
6	Innovatsion aloqalar	51	3
7	Ilmiy va texnik maqolalar nashri	117	3
8	Mehnat unumdorligining o'sishi	6	68
9	Yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish	51	2
10	Yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti	122	26
11	Yuqori texnologiyali mahsulotlar importi	27	112
12	Fan va muhandislikni tamomlagan mutaxassislar	12	44

Keltirilgan 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, aniqlangan barcha ko'rsatkichlar bu ikki mamlakat misolida keskin farq qiladi. Masalan, mamlakatda olib boriladigan tadqiqot va ishlanmalar miqdori bo'yicha Shvetsariya 4-o'rinni egallagan. Bunga qo'shimcha tarzda, Shvetsariya ilmiy maqolalarning nashri bo'yicha ham yetakchilik qilmoqda, ya'ni 3-o'rinda. O'zbekiston esa afsuski, bu ko'rsatkichlar bo'yicha jahon davlatlari ro'yxatining quyi qismidan o'rin egallagan. Bu shuni anglatadiki, qancha ko'p ta'limga, innovatsiyaga hamda tadqiqotlarga e'tibor qaratilishi - bir paytning o'zida ham mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ham mavjud bo'lgan resurslardan samarali foydalangan holda kelajak avlod uchun mustahkam poydevor yaratilishiga imkon beradi. Keltirilgan 1-jadvaldagi ma'lumotlar orqali innovatsiyalarga ta'sir qiluvchi omillar bo'yicha ikki mamlakatni bir-biri bilan solishtirib tahlil qilib chiqishimiz mumkin. Quyida shu ko'rsatkichlarni ustunli diagramma yordamida ham ko'rib chiqishimiz mumkin.



**1-rasm. 132 ta davlat miqyosida Global Innovatsion Indeksni belgilab beruvchi asosiy ko'rsatkichlar (2023-yil holatiga ko'ra)**

Insoniyatning rivojlanishiga har doim texnologiyadagi o'zgarishlar va zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi (masalan, AI, Big Data, IoT, blokcheyn, 3D bosib chiqarish hamda u turtki bo'lgan - genlarni tahrirlash va boshqalar) tobora tezlashmoqda. Bu yilgi UNCTAD (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot Konferentsiyasi) da taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi vaqtda barcha texnologiyalar 350 milliard AQSh dollarini tashkil etadi, 2025-yilga kelib hayratlanarli 3,2 trillion AQSh dollarigacha o'sishi mumkin. So'nggi yillarda, Covid-19 pandemiyasi va butun dunyo bo'ylab firmalarning o'zgargan ish sharoitlariga moslashish zarurati tufayli, raqamlashtirish sohasidagi innovatsiyalar ham tezlashdi. Dunyoning ko'plab yetakchi mamlakatlari inson faoliyatini keskin qisqartirish imkoniyati mavjudligini anglab yetdilar. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti, Portlend instituti va boshqa korporativ hamkorlar bilan birgalikda har yili innovatsion ma'lumotlarga (masalan, ilmiy-tadqiqot ishlari, infratuzilma va tartibga solish muhiti) asoslangan innovatsion samaradorlikni o'lchaydigan, innovatsion natijalar (intellektual mulk va boshqalar) va Global innovatsion indeksi (GII) ni ishlab chiqadi. Ular buni 2007-yildan beri hisoblab kelishmoqda va so'nggi yillardagi pandemiya sharoiti innovatsiyalarga jiddiy ta'sir ko'rsatganini ta'kidladilar.

Bu yil GII jahon iqtisodiyotining innovatsion tarmoqlari: fan va investitsiyalar o'sishda davom etdi va uzluksiz ishladi. Xalqaro patent arizalari, ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflanadigan xarajatlar, ilmiy maqolalarning nashri va boshqa asosiy innovatsion ko'rsatkichlar ham o'sishda davom etdi, deydi Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) bosh direktori Daren Tang.

Global innovatsiyalar indeksiga ko'ra Shvetsariya yana dunyodagi birinchi raqamli innovatsion davlat etib belgilandi. Bu mamlakat ketma-ket 13-marta eng innovatsion 10 ta davlat qatoriga kirdi. Tabiiy resurslarning yetishmasligi tufayli Shvetsariya uzoq vaqt davomida tadqiqot va ishlanmalarga e'tibor qaratgan. Vaqt o'tishi bilan u dunyoga mashhur ko'plab universitetlarga sarmoya kiritdi va moliyalashtirdi. Bu universitetlar, o'z navbatida, yuqori malakali xodimlarni ish bilan ta'minlaydigan transmilliy kompaniyalarni jalb qildi. Masalan, 2020-yilda har 1 million aholiga 966 ta patent talabnomasi bilan Shvetsariya dunyo bo'ylab 3-o'rinni egallab turdi (Country Navigator veb sayti).

Shvetsariya innovatsiyalarni boshqarishni muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda va o'zining eng yuqori mavqeiga erishmoqda degan xulosaga kelishimiz mumkin. Madaniy qadriyatlar va tashkiliy muhitni to'g'ri moslashtirish bo'yicha samarali rejalashtirish va strategiyalarni amalga oshirish orqali Shvetsariya innovatsiyalar qilish bo'yicha farmatsevtika sohasida bozor yetakchisiga aylanadi. Mamlakatda barcha xodimlarning innovatsion jarayonga bo'lgan yondashuvi, strategik qarashlari va rivojlanishdan to'xtamay davom etishlari uchun juda yaxshi muhit yaratilgan. Ular eng so'nggi texnologik yutuqlardan foydalangan holda mijozlarning talabi va qoniqishi asosida o'zlarining butun boshqaruv jarayonlarini ishlab chiqadilar.

O'zbekiston misolida aytish mumkinki, sohadagi xodimlar kuchli salohiyatga ega hamda yuksalib bormoqdalar. Innovatsiyalar so'zi O'zbekiston uchun yangi atama emas va so'nggi kunlarda ularning ahamiyati yanada chuqurroq o'rganib borilmoqda. Innovatsiyalarni boshqarish murakkab bo'lganligi uchun mamlakatimizda ko'proq yangi texnologiyalarni o'rnatishga va innovatsiyalarga jiddiy yondashgan holda rivojlanish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishga e'tibor qaratish lozim.

### **Xulosa va takliflar.**

Innovatsion jarayonda kompaniya yaxshi strategiyaga ega bo'lsa, innovatsiyalarning muvaffaqiyatlilik darajasi tezda oshadi. Shubhasiz, kompaniya uchun unga qiymat keltiradigan natijalarni beradigan aniq va maqsadga yo'naltirilgan strategiya bo'lishi kerak. Innovatsion strategiyani ishlab chiqish uchun foydalanish mumkin bo'lgan model:

#### **1. Kashfiyot.**

Amalga oshirish mumkin bo'lgan eng yaxshi innovatsion strategiyani ishlab chiqish uchun innovatsiyalarning ichki va tashqi tomonlari bo'yicha tahlil o'tkazilishi kerak. Boshlash uchun joriy strategik rejalar qanchalik samarali ekanligini o'rganish va yetarli darajada bozor tadqiqotlarini o'tkazish mumkin. Quyida bajariladigan qadamlar aniq keltirilgan:

- Bozor tahlili;
- Innovatsion tendensiyalar va ishlanmalar bo'yicha tadqiqotlar;
- Mijozlar, hamkorlar va xodimlarni fikr-mulohazalarni taqdim etishga jalb qilish;

Bu yerda to'plangan ma'lumotlardan keyin SWOT, ko'rsatkichlar va boshqalar kabi modellar to'plamlaridan foydalanish mumkin.

#### **2. Rivojlanish.**

Ushbu bosqichda dastlabki tadqiqot va xulosalar asosida innovatsion strategiyaning asosi quriladi. Strategiya qanday qismlardan iborat bo'lishini ishlab chiqish. Masalan ba'zi elementlarni ko'rishimiz mumkin:

- Kutilmalar va missiya;
- Asosiy qiymatlar;
- Strategiyalar;
- Prognoz va maqsadlar;

Bu jarayonda muhim maqsadli guruhlarini aniqlash, mijozlar, xodimlar va muhim hamkorlarni jalb qilish mumkin. Jarayonni iloji boricha optimallashtirish uchun innovatsion poydevor qo'yilishi kerak.

#### **3. Rejalar.**

Barcha joyda aytilganidek, “Agar u qog‘ozda bo‘lmasa, u mavjud emas”. Ushbu bosqichda innovatsion strategiya rejasi tuziladi, chunki strategiyada bajariladigan vazifalar yanada aniqroq bo‘ladi va ilk xulosalar chiqariladi. Rejalarni jismoniy ravishda qog‘ozga yozish shart bo‘lmasa-da, korxonada quyidagilarni o‘z ichiga olgan yo‘l xaritasidan foydalanishi mumkin:

- Uzoq muddatli maqsadlar;
- Qisqa muddatli maqsadlar (uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun qo‘yiladigan bir nechta kichik qadamlar);

Bundan tashqari, yuqori sifat darajasidagi reja va uning asosiy ko‘rsatkichlar belgilanishi kerak. Bu yerda tashkilot ichidagi har bir bo‘lim uchun rejalarni bilan birga barcha xodimlarning mas‘uliyati ham ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, kerak bo‘lganda zarur yangilanishlarni tavsiya qilish uchun muntazam yig‘ilishlarni tashkil qilish ham muhimdir.

#### 4. Ishga tushirish.

Strategik reja rasmiylashtirilgandan so‘ng, faqat uni ishga tushirish qoldi. Manfaatdor tomonlar erishilishi kerak bo‘lgan maqsadlardan xabardor bo‘lishlari kerak. Ishga tushirish qanchalik yaxshi bo‘lsa, innovatsion strategiya shunchalik yaxshi bo‘ladi.

#### 5. Ijro.

Endi strategiya ishga tushirilgandan so‘ng, keyingi qism rejalarni amalga oshirish bo‘ladi. Innovatsion strategiya - bu har yili qayta ko‘rib chiqiladigan va o‘sha yil davomida amal qiladigan reja. Hammani bir kemada ushlab turish va to‘g‘ri narsalarga e‘tibor qaratishning eng yaxshi usullari raqamlar haqida tushuncha berish, muntazam ravishda qisqa maslahatlashuvlar o‘tkazishdir hamda muloqot va ijobiy xatti-harakatlar orqali strategiyani saqlab qolishdir (Accept Mission veb sayti).

#### **Adabiyotlar/ Jumepamyra/ Reference:**

Juan Carlos, José Fernando, José Luis (2019). *Technological management and innovation in organizations: A systematic review of the literature*, 20.

Nishat Jahan Islam, Mohammad Shafiul Basar (2022). *A comparative study on Innovation management processes in the context of developing and developed countries*.

Pouran Yasini (2016). *Specific characteristics of innovation management process*. *International Journal of Organizational Leadership* 5, 162-171.

Rasmus Lema, Erika Kraemer-Mbula, Marija Rakas (2021). *Innovation in developing countries: examining two decades of research*. *Innovation and development*, 189–210.

Soumitra Dutta, Bruno Lanvin, Lorena Rivera León, Sacha Wunsch-Vincent (2023). *Global Innovation Index 2023 Innovation in the face of uncertainty*, 16<sup>th</sup> ed. World Intellectual Property Organization, 191-205.

<https://www.countrynavigator.com/blog/top-10-innovative-countries-in-the-world/>

<https://www.acceptmission.com/blog/innovation-strategy/>

<https://www.visualcapitalist.com/most-innovative-countries-in-2023/>